

**OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL
ETISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI**

To'rayeva Orzигул Bobomurod qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti,
Matematika-informatika ta'lism yo'nalishi 3-bosqich talabasi
Nasirova Shaira Narmuradovna
Navoiy davlat pedagogika instituti
Informatika kafedrasи professori

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Oliy ta'lism tizimida talabalar mustaqil ta'limiini tashkil etish jarayonini takomillashtirishning ahamiyati to'g'risidagi ma'lumotlар yoritilgan. Axborot-ta'lism muhitida mustaqil ta'limgarni bajarish nafaqat axborot texnologiyalariga oid bilimlar, balki, shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish, o'zini o'zi takomillashtirish va o'zini o'zi anglashining muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *ta'lism, jarayon, mustaqil, ijodiy, resurs, uzluksiz, kompetentlik, bilim, ko'nikma, faoliyat, malaka.*

Аннотация. В данной статье представлена информация о важности совершенствования процесса организации самостоятельного образования студентов в системе высшего образования. Проведение самостоятельных занятий в информационно-образовательной среде служит не только информационными технологиями познания, но и важным средством саморазвития, самосовершенствования и самосознания личности.

Ключевые слова: образование, процесс, самостоятельный, творческий, ресурсный, непрерывный, компетентность, знание, умение, деятельность, квалификация.

Abstract. *This article provides information on the importance of improving the process of organizing students' independent education in the higher education system. Carrying out independent studies in the information-educational environment serves not only as information technology knowledge, but also as an important means of self-development, self-improvement and self-awareness of the individual.*

Key words: *education, process, independent, creative, resource, continuous, competence, knowledge, skill, activity, qualification.*

Mamlakatimizda ta'lism jarayonini hozirgi zamon talablariga moslashtirish, rivojlangan xorijiy tajribalarni qo'llagan holda modernizatsiyalash hamda uning sifat va samaradorligini ta'minlashda talabalarning mustaqil faoliyatini va mustaqil ta'limiini tashkil etish va boshqarish uchun zarur sharoitlarni yaratish, ularni mustaqil va ijodiy faoliyatga yo'llash orqali kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish va kompetentligini shakllantirish uzluksiz ta'lism tizimining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Respublikamizda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, kasbiy kompetentligini shakllantirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, talabalar ishtirokida pedagogik dasturiy mahsulotlar ishlab chiqishning meyoriy asoslari va moddiy texnika bazasi yaratildi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayèrlash jaraènini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodièt tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni asosida "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" qabul qilinganligi ayni mazkur muammolarni bartaraf etishga qaratilganligini e'tirof etish mumkin

Mustaqil ta'lim - bilimlarni o'zlashtirish tasavvurlarni rivojlantirish tushunchalari, ko'nikma va malakalarini xosil qilish bo'yicha o'quv jarayonining subyektiv maqsadga muvofiq, muntazam, mustaqil hamda avtonom faoliyatni tashkil etish demakdir. O'quv jarayoni samarali o'qitish sifati va talabaning mustaqil bilish faoliyati bilan belgilanadi. Bu har ikkala tushuncha bir –biriga bog'liq. Lekin mustaqil ishga, bir qator sabablar tufayli, ta'limning yetakchi va faollashtiruvchi shakli sifatida qarash zarur bo'ladi.

Bilim, ko'nikma, malaka, odat, e'tiqod, ma'naviyat kabilalar o'qituvchidan talabaga to'g'ridan –to'g'ri o'tib qolmaydi. Negaki faqat moddiy ashyolar qo'ldan –qo'lga o'tadi. Har bir talaba ularni eshitish, og'zaki axborotni anglash, o'qish, matnlarni taxlil qilish va anglash hamda tanqidiy tahlil qilish singari mustaqil bilish mehnati orqali o'zlashtiradi.

Agar mustaqil ish o'quv jarayonining asosiy elementlaridan biri bo'lib qolsa va uning uchun har bir darsda maxsus vaqt ajratilsa, agar u doimiy va rejali ravishda o'tkazilsa, uning samaradorligiga erishiladi.

O'quv jarayonida qo'llanadigan barcha turdag'i mustaqil ta'lim talabalar o'quv faoliyatining xarakteri, didaktik maqsadi, mazmuni, mustaqillik darajasi va talabalar ijodiy elementlari kabi turli belgilari bo'yicha tasniflanadi. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida ta'lim tizimini axborotlashtirish, uni jahon axborot tarmog'iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog'i bilan to'liq ta'minlash jarayonlari bormoqda.

Axborot-ta'lim muhitida mustaqil ta'limlarni bajarish nafaqat axborot texnologiyalariga oid bilimlar, balki, shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish, o'zini o'zi takomillashtirish va o'zini o'zi anglashining muhim vositasi sifatida zarur. Shuning uchun ham talabalar ilgari o'zlashtirgan bilim va egallagan ko'nikmalarining yetarli emasligini o'zları anglashi va tushunishlari, professor-o'qituvchi bilan birgalikda o'quv vazifasini shakllantirishi, o'z-o'zini baholay olishi kerak. Professor-o'qituvchining vazifasi esa talabaning mustaqil ta'limlashi va o'z-o'zini

rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish, belgilangan vazifani hal qilishda uni mustaqil faoliyatga undashdan iborat. Bu jarayonda o‘z faoliyatini o‘zi boshqarish va rivojlantira olish kompetensiyasi muhim o‘rin tutadi. Qayd qilish lozimki, mustaqil ta’limni rivojlantirish kelajakda talabalarning bilimlarini oshirishda o‘zining ijobiy samarasini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nasirova Sh. N., Xoliqov M.M., Jurayeva D.E. Computer animation is a tool for development of creative skills. “Ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari resurslaridan foydalanish istiqbollari” mavzusidagi respublika konferensiyasi, 2023-yil 30-may, Toshkent, 88-89 bet
2. Nasirova Sh. N., Jurayeva D.E. Raqamli ta’lim tizimida multimediali texnologiyalardan foydalanish. “Илм, фан ва сифатли таълим: долзарб муаммолар, ютуқлар ва инновацион технологиялар” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция, 2023 йил 9-10 июнь, Нукус, 323-324 бет